

**ALISHER NAVOIYNING “SABBAI SAYYOR” DOSTONIDAGI
BIRINCHI HIKOYASI: MAZMUN, BADIYLIK VA TARBIYAVIYLIK
XULOSALARI.**

ABDUMUTALOVA SHODIYA MIRZARAHIM QIZI
FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TIII YO`NALISHI 3-KURS TALABASI.

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodidagi “Xamsa” asaridagi to`rtinchi doston “Sabbai sayyor” dostoni va undagi birinchi iqlim hikoyasi tahlil qilinadi. Maqolada dostonning asosiy qahramonlari Shoh Bahrom uning sevgilisi Dilorom obrazi va hikoyadagi ramziy qahramonlar Farrux va Axiy obrazlari o`rganiladi. Maqolada hikoyaning syujeti, axloqiy-tarbiyaviy va falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Qolaversa, ramziy unsurlari qora qasr ramzi orqali inson ruhidagi ichki kurash, axloqiy sinovlarni va ruhiy kamolotini shakllantirishdagi ahamiyatiga e`tibor qaratadi.

Kalit so`zlar: Alisher Navoiy, “Sabbai sayyor”, badiiylik, tarbiyaviylik, syujet, do`stlik, birinchi iqlim, o`dob-axloq, ma`rifiy g`oya.

Abstract: This article analyzes the fourth epic poem "Sabbai Sayyor" in the work "Kham sa" by Alisher Navoi and the first climate story in it. The article analyzes the main characters of the epic, Shah Bahrom, his lover Dilorom, and the symbolic characters Farrukh and Axiy in the story. The article analyzes the plot, moral-educational and philosophical content of the story. In addition, the symbolic elements draw attention to the importance of the internal struggle in the human soul, moral trials and spiritual maturity through the symbol of the black castle.

Keywords: Alisher Navoi, "Sabbai Sayyor", artistry, education, plot, friendship, first climate, morality, educational idea.

Аннотация: В статье анализируется четвертая эпическая поэма «Саббай сайёр» в произведении «Хамсе» Алишера Навои и первый её клим-рассказ. В статье анализируются главные герои эпоса – Шах Бахром, его возлюбленная Дилором, а также символические образы Фарруха и Аксий. Анализируются сюжет, нравственно-воспитательное и философское содержание поэмы. Символические элементы через образ чёрного замка акцентируют внимание на важности внутренней борьбы в душе человека, нравственных испытаний и духовной зрелости.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Саббай сайёр», художественное мастерство, воспитание-----, сюжет, дружба, первый клим-рассказ, нравственность, воспитательная идея.

Kirish. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarining to`rtinchi dostoni “Sabbai sayyor” bo`lib, bu asar 1484-yilda yozib tugallangan. Asarning bosh qahramonlari Bahrom shoh tarixiy shaxs sifatida Eronning sosoniylar hukmdorlaridan biri bo`lgan Varaxran V ga borib taqaladi. Bahrom tabiatan ov qilishga juda qiziqadi, mohir mergan bo`ladi. Xalq orasida uni Bahron Go`r laqabi bilan mashhur bo`lishini sababi u yetti iqlim podshosi bo`lib, bitmas tunganmas boylik va hazinalar orttiradi, lekin ov qilishga juda o`ch bo`lganligi va ayshu ishratga berilib ketishi oqibatida o`zi ham barcha topgan hazinalari ham taqdir taqozosi bilan bir deganda go`rga, ya`ni yer qariga kirib ketadi. Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi Bahrom deb atalib jang-u jadallar homiysi sifatida keladi. Bahrom bilan bog`liq xalq naqllari, afsona va rivoyatlar dastavval eronliklar tomonidan vujudga keltirilgan va davrlar o`tishi bilan Sharq xalqlari orasida keng tarqalib ketadi. Shoh Bahrom obrazi birinchi bo`lib, forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” sida tasvirlangan. Keyin esa birin-ketin boshqa shoirlar asarlarida shuningdek Xamsachilik an`anasidagi dostonlarning bosh qahramoni sifatida adabiyotimizga kirib keldi. “Sabbai sayyor”

dostonining “Xamsa” ichidagi boshqa dostonlardan farqi hikoya ichida hikoya qilish usulida yozilgan. Asarda Bahrom va uning sevgilisi Dilorom o`rtasidagi voqealari asosiy qoliplovchi hikoya bo`lib, uning ichida yana yettita hikoya keltiriladi. Asardagi asosiy voqea va uning ichida keltirilgan hikoyalar bir-biriga chambarchas bog`lanib, ramziylik beradi va yaxlit bir badiiy asarning uzviy qismlarini tashkil etadi. Ayni vaqtda hikoyaning har biri mustaqil hisoblanadi va mavzular davrining, xalq turmushining muhim tomonlarini qamrab oladi. Xalq hayoti, tinchlik va osoyishtalik, adolat va ma`rifat, do`stlik g`oyalari ilgari suriladi, munofiqlik va zolimlik qoralanadi.

Dostonda aytganimizdek hikoya ichida hikoya qilish usulidan foydalanilgan. Shoh Bahrom ov qilib yurgan chog`larida rassom Moniyni uchratib qoladi. Moniy Bahromga Chinda tengi yo`q bir go`zal haqida aytib berib, o`zi chizgan suratni ko`rsatadi. Shoh suratni ko`rishi bilan Diloromga oshiq bo`lib qoladi va Chin mamalakatining bir yillik xirojini to`lab, qizga uylanadi. Shundan keyin shoh Diloromga butunlay mahliyo bo`lib erta-yu kech uning yonidan ketmaydi va davlat ishlari bilan unitadi, kayf-safoga berilib ketadi. Bir kuni ov paytida Dilorom Bahromning merganligini mashq tufayli shu darajaga yetgan deydi. Mast Bahrom bu gapidan g`azablanib, Diloromni qo`l oyog`ini bog`lab sahroga tashlab keladi. Va o`ziga kelganidan keyin qilgan ishidan afsuslanadi, lekin Diloromni topaolmaydi. Shundan so`ng Bahrom Diloromni ishqida juda g`amgin bo`lib qoladi. Hech qaysi tabib uning dardiga davo topisholmaydi. Barcha tabiblar to`planib, yetti iqlim shohi yettita qasr qurishadi va bu qasrlar har biri har xil rangda har xil naqshlar bilan bezatiladi. Shoh Bahrom har kuni har bir qarsda mehmon bo`lib ko`ngil hushlik qiladi.

Har bir hikoyatlarda shoh va shahzoda obrazlarining muhim o`rin tutishi ularning aynan shoh (Bahrom) uchun aytilganligiga ishora qiladi. Har bir hikoyatdagi voqealar, albatta, safar asnosida ro`y beradi, hikoyat qahramonlari sayr-u sayohat orqali o`z maqsadlariga erishadilar. Bu bilan Navoiy sayyoralarning tinimsiz

harakatiga, shu bilan insonning o'z maqsadiga yetish uchun sa'y-harakat qilmog'i darkorligiga ishora qiladi. Dostonning birinchi maqolatida ham xuddi shu masalalar ko'tariladi. Ushbu hikoyatda saxiylik, jo'mardlik, vafodorlik, do'stlik, taqvo kabi futuvvat-javonmardlik g'oyalari ham kuylangan bo'lib, bundan muallifning maqsadi mazkur hikoyat orqali shoh Bahrom ongiga javonmardlik g'oyalarini sinfdirib borishdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek shoh har kuni har xil qasrda mehmon bo'ladi dedik va birinchi kuni haftaning shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhul (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farruh va Axiy haqidagi hikoyatni tinglaydi. Unga ko'ra, Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aql-u husnda tengsiz o'g'li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko'rib, sevib qoladi. O'sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko'rgan go'zalni uchratib, hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o'ranib, og'ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko'rsatadi. U bilan suhbatda bo'lgan Axiy Farruxning zakovatiga qoyil qoladi va shahzodaning dardiga davo topishni chin dildan xohlaydi. Nihoyat Farruxning ishqiqi tushgan go'zal o'zining ayoli ekanini bilib oladi va jufti halolini taloq qilib, Farruxga nigohlab beradi. Farrux o'z yurtiga qaytadi va otasi vafot etgani uchun taxtga o'tiradi. Bu orada Axiyning ishlari orqaga ketadi, tuhmatga uchraydi, o'z yurtidan qochib, jon saqlab qoladi. Farrux uylangach, Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o'ziga singil kabi tutadi va do'stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, shu yerda ikki do'st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o'z ayolini unga katta to'y bilan nigohlab beradi. Shu tariqa ular chin do'st sifatida, bir-biridan yordam va mehrini ayamay, uzoq umr kechiradilar. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh shoh Bahromga o'zining Axiy avlodidan ekanini ma'lum qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi.

Xulosa. Alisher Navoiyning "Sab' ai Sayyor" dostonidagi birinchi hikoya o'zining badiiy va ma'naviy-axloqiy boyligi bilan ajralib turadi. Hikoya Shoh

Bahrom obraziga uyg'un tarzda talqin qilingan bo'lib, uning adolatparvarligi, oqilona fikrlashi, xalq dardiga hamdard bo'lishi va ezgulikka intilishi dostonning asosiy g'oyalari yanada boyitadi. Bahromning har bir qarori o'quvchiga hayotiy ibrat bo'lib, insonning harakatlari oqibatini chuqur anglashga, saxovat va savobat yo'lini tanlashga chorlaydi.

Hikoyada ilgari surilgan saxovat tushunchasi faqat moddiy yordam bilan cheklanmaydi, balki qalb pokligi, fidoyilik, boshqalarga yordam qo'lini cho'zish va ezgulikka intilish bilan ham ifodalanadi. Do'stlik esa insonning ruhiy boyligi va hayotiy tayanchi sifatida talqin qilinadi — sodiq do'st, yordam beruvchi va vafodor inson timsoli hikoyada yorqin aks etadi. Sadoqat va vafolik g'oyalari esa shaxsiy axloqiy me'yor sifatida o'quvchiga yetkaziladi, insonning shaxsiy fazilatlari va jamiyatdagi o'rnini aks ettiradi.

Shuningdek, hikoya orqali muallif o'quvchini aql, sabr, irodali bo'lish va oqilona qaror qabul qilishga undaydi. Har bir badiiy tafsilot, ramziy obraz va voqea rivoji insoniylik, halollik, saxovat va do'stlik kabi qadriyatlarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu sababli birinchi hikoya mazmuni, badiiyligi va tarbiyaviyligi bilan nafaqat tarixiy adabiy meros sifatida, balki bugungi avlod uchun ham dolzarb ma'naviy va ibrat manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. "Xamsa", Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik, Toshkent: "Tamaddum", 2019.
3. A.Hayitmetov. Alisher Navoiy va adabiyotimiz, Toshkent: Fan, 1970.
4. H.Zohidov. Alisher Navoiy, Toshkent: Fan, 1968.
5. A.Fitrat. Alisher Navoiy, Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.